



SOCIO-CULTURAL SIGNIFICANCE AND SCIENTIFIC-THEORETICAL BASIS OF THE CONCEPT OF BLOGOSPHERE

Madinabonu Sayfitdinova

Lecturer

Andijan State Pedagogical Institute

Andijan, Uzbekistan

ABOUT ARTICLE

Key words: Blogosphere, virtual communication, civil society, freedom of information, cultural heritage, digital technologies, social networks, media democracy, postmodernism, information space.

Received: 04.03.25

Accepted: 06.03.25

Published: 08.03.25

Abstract: This article is based on the fact that the blogosphere is a virtual information space created by blogs and their authors, which has become an integral part of modern society. This phenomenon is studied in depth from the points of communication, sociology, information technology and philosophy, and it is argued that the blogosphere is not just a means of disseminating information, but also a catalyst for socio-cultural changes. From a social point of view, the blogosphere creates new forms of communication between members of society and serves the development of civil society, the emergence of independent bloggers and their influence on public opinion reduces the monopoly of traditional media and leads to the democratization of the information space. From a cultural point of view, it is argued that the blogosphere serves to strengthen ties between global and national cultures, and bloggers contribute to the preservation and development of cultural heritage by presenting national traditions, literature, art and various creative directions to the general public.

BLOGOSFERA TUSHUNCHASINING IJTIMOIY-MADANIY AHAMIYATI VA ILMIY-NAZARIY ASOSLARI

Madinabonu Sayfitdinova

o'qituvchi

Andijon davlat pedagogika instituti

Andijon, O'zbekiston

MAQOLA HAQIDA

Kalit so‘zlar: Blogosfera, virtual kommunikatsiya, fuqarolik jamiyati, axborot erkinligi, madaniy meros, raqamli texnologiyalar, ijtimoiy tarmoqlar, media demokratiyasi, postmodernism, axborot maydoni.

Annotatsiya: Ushbu maqoladi blogosfera bloglar va ularni yurituvchi mualliflar tomonidan yaratilgan virtual axborot maydoni bo‘lib, u zamonaviy jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanganligi asoslangan. Ushbu fenomen kommunikatsiya, sotsiologiya, axborot texnologiyalari va falsafa nuqtayi nazaridan chuqur tadqiq etilib, Blogosfera shunchaki axborot tarqatish vositasi emas, balki ijtimoiy-madaniy o‘zgarishlarning katalizatori ekanligi asoslab berilgan. Ijtimoiy nuqtayi nazardan blogosfera jamiyat a’zolari o‘rtasida muloqotning yangi shakllarini yaratib, fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga xizmat qilayotganligi, mustaqil blogerlarning paydo bo‘lishi va ularning jamoatchilik fikriga ta’siri an’anaviy ommaviy axborot vositalarining monopoliyasini kamytirib, axborot maydonining demokratlashuviga sabab bo‘layotganligi misollar bilan yoritib berilgan. Madaniy nuqtayi nazardan blogosfera global va milliy madaniyatlar o‘rtasidagi aloqalarni mustahkamlashga xizmat qilayotganligi, blogerlar milliy an’analar, adabiyot, san’at va turli ijodiy yo‘nalishlarni keng ommaga taqdim etib, madaniy merosning saqlanishi va rivojlanishiga o‘z hissasini qo‘shayotganigi asoslab berilgan.

СОЦИОКУЛЬТУРНОЕ ЗНАЧЕНИЕ И НАУЧНО-ТЕОРЕТИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ КОНЦЕПЦИИ БЛОГОСФЕРЫ

Мадинабону Сайфитдинова

преподаватель

Андижанского государственного педагогического института

Андижан, Узбекистан

О СТАТЬЕ

Ключевые слова: блогосфера, виртуальная коммуникация, гражданское общество, свобода информации, культурное наследие, цифровые технологии, социальные сети, медиадемократия, постмодернизм, информационное пространство.

Аннотация: В основе статьи лежит тот факт, что блогосфера — это виртуальное информационное пространство, созданное блогами и авторами, которые их ведут, ставшее неотъемлемой частью современной общественной жизни. Это явление было глубоко изучено с точки зрения коммуникации, социологии, информационных технологий и философии, и было доказано, что блогосфера является не только средством распространения информации, но и

катализатором социокультурных изменений. С социальной точки зрения примеры иллюстрируют, как блогосфера создает новые формы общения между членами общества и служит развитию гражданского общества, а также как появление независимых блогеров и их влияние на общественное мнение снижает монополию традиционных СМИ и ведет к демократизации информационного пространства. С культурологической точки зрения утверждается, что блогосфера служит укреплению связей между мировой и национальной культурой, а блогеры вносят вклад в сохранение и развитие культурного наследия, представляя широкой публике национальные традиции, литературу, искусство, различные творческие направления.

Kirish. Bugungi kunda internet jamiyat hayotining ajralmas qismiga aylanib, turli axborot vositalari va kommunikatsiya shakllarini o‘z ichiga olgan global maydonni yaratdi. Ushbu maydon tarkibida blogosfera alohida o‘rin tutadi. Blogosfera jamiyat hayotining turli jabhalariga chuqur ta’sir o‘tkazib, axborot erkinligi, fuqarolik faolligi, madaniy rivojlanish va ijtimoiy kommunikatsiyaning muhim qismi sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning ta’siri yanada kengayib, kelajakda blogerlar jamiyatda muhim o‘rin egallashda davom etishi kutilmoqda.

“Blogosfera” atamasi ilk bor 1999-yilda amerikalik jurnalist va yozuvchi Brad L.Graham tomonidan qo‘llangan. Keyinchalik bu atama 2002-yilda amerikalik internet-tadqiqotchi va texnolog bloger **William Quick** tomonidan ommalashtirildi. U bloglar jamoasi va blog yurituvchilar hamjamiyatini tavsiflash uchun “blogosphere” terminini ishlatgan. Shundan so‘ng, “blogosfera tushunchasi internet va media olamida keng tarqalib, axborot texnologiyalari, sotsiologiya, kommunikatsiya va falsafa sohalarida ilmiy asoslangan holda o‘rganila boshlandi. Bugungi kunda blogosfera virtual kommunikatsiyaning muhim fenomeni sifatida qabul qilinadi”[1]. Blogosfera media olamida individuallik va subyektivlikni oldingi o‘ringa olib chiqdi. Bu jarayon jamiyatda haqiqatni idrok etishning yangi shakllarini yuzaga keltirib, shaxsiy tajriba va individual dunyoqarashni ommaviy diskursiya markaziga aylantirdi. Shu sababli, blogosfera media nisbiyligi va haqiqat tushunchalarining o‘zgarishiga bevosita ta’sir ko‘rsatdi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. *Henry Jenkins* blogosfera va boshqa yangi media shakllarining ijtimoiy-madaniy ta’sirini, *Yochai Benkler* blogosferaning iqtisodiy va ijtimoiy jihatlarini, *Yevgeny Morozov* internet va blogosferaning ijtimoiy-madaniy ta’sirini, *Lev Manovich* blogosferaning madaniy ahamiyatini, *Alexey Sidorenko* Rossiya blogosferasining ijtimoiy-

madaniy ahamiyatini, *Yelena Vartanova* MDH davlatlarida blogosferaning rivojlanishini tanqidiy nuqtai nazardan ko'rib chiqadi.

Tahlil va natijalar. Blogosfera – bu internetdagi bloglar va blog yurituvchilar hamjamiyatini o'z ichiga oluvchi global virtual muhitdir hisoblanadi. Blogosfera nafaqat axborot almashish maydoni, balki g'oyalar, fikrlar va nuqtai nazarlarning to'qnashadigan, rivojlanadigan hamda shakllanadigan maydon hisoblanadi. "Bloglar jamoatchilik fikrini shakllantirish vositasiga aylanib, fuqarolik jurnalistikasi va demokratik ishtirokchilikning yangi shakllarini yaratdi. U ijtimoiy guruhlar o'rtasida axborot almashinuvini tezlashtirib, turli qatlamlar orasidagi tafovutlarni bartaraf etishga xizmat qiladi"[2]. Biroq, shu bilan birga, blogosferaning manipulyatsiyaga moyilligi va axborot ishonchliligi masalalari dolzarb bo'lib turibdi.

Bugungi kunda blogosfera, birinchi navbatda, shaxslararo virtual muloqot vositasidir. Ko'p Internet platformalari (bloglar, forumlar, ijtimoiy tarmoqlar, chatlar va boshqalar) virtual dunyoda ma'lum elektron janrlar sifatida mavjud bo'lib, an'anaviy yozma va og'zaki shakllardan farq qiladigan yangi muloqot qoidalarini joriy qiladi. **Fikrimizcha, blogosfera** – bu blog yurituvchilar tomonidan yaratilgan va interaktiv axborot almashinuvi asosida rivojlanib boruvchi global virtual muhit bo'lib, unda subyektiv fikrlar, dolzarb mavzular va ijodiy g'oyalar o'zaro bog'langan holda jamiyat tafakkuriga ta'sir o'tkazadi. U erkin axborot tarqatish, demokratik muloqot va individual o'zini namoyon etish maydoni sifatida shakllanib, turli madaniy va falsafiy nuqtai nazarlarni o'z ichiga oladi.

Blogosferaning ijtimoiy ahamiyati uchta asosga tayanadi. A) So'z erkinligi va fuqarolik pozitsiyasini aks ettiradi. Blogosfera oddiy internet foydalanuvchilariga o'z fikrlarini ochiq ifoda etish imkonini beradi. Bloglar orqali ijtimoiy va siyosiy masalalar muhokama qilinib, ommaviy axborot vositalarida aks etmagan muhim masalalar yoritiladi. B) Jamiyatni axborot bilan ta'minlaydi. Bloglar tezkor axborot yetkazib berishning muhim manbalaridan biriga aylangan. Mustaqil blogerlar va internet jurnalistlari voqealar joyidan bevosa xabar berib, an'anaviy OAVga muqobil axborot vositasi sifatida shakllandi. C) Ijtimoiy faollik va jamoatchilik fikrini shakllantiradi.

Blogosfera jamoatchilik faolligini oshirishda katta rol o'ynaydi. Turli ijtimoiy tarmoqlar bilan bog'liq blog postlari ko'pincha muhim muhokamalarni keltirib chiqaradi va jamiyatdagi dolzarb masalalar bo'yicha fikr almashinuvini rag'batlantiradi.

Blogosferani falsafiy ahamiyati shundaki, jamiyatdagi axborot tarqatish va muloqot qilish usullarini o'zgartirdi. U postmodernizmning muhim jihatlaridan biri sifatida turli nuqtai nazarlarning mavjudligini tan oladi va haqiqatni ko'p qirrali hodisa sifatida ko'rsatadi. Blogosfera an'anaviy OAV kabi yagona "to'g'ri" fikrni ilgari surmaydi, balki turli shaxslarning qarashlarini jamlab haqiqatning subyektiv pozitsiyalarni o'zida jamlaydi. Bloglar geografik va madaniy

chegaralarni yo‘q qilib, dunyo fuqarolarini birlashtirishi natijasida global va madaniyatlararo muloqotni ta’minladi. Blogosfera senzura va axborot nazoratiga qarshi turuvchi maydon sifatida namoyon bo‘lib, demokratiya va axborot erkinligi ta’minladi. Blog yuritish shaxsning o‘zligini namoyon etish, o‘ziga xos fikr va tajribalarini baham ko‘rish vositasi hisoblanib, shaxs identifikatsiyasi va o‘z-o‘zini ifodalash imkonini yaratdi.

Blogosferaning asosiy xususiyatlari – a) har qanday foydalanuvchi o‘z fikrlarini erkin ifodalashi, turli mavzularda yozishi va auditoriya bilan muloqot qilishi erkinlik va ochiqlikka asoslanadi; b) bloglar orqali yozilgan materiallar faqat o‘qilmaydi, balki muhokama qilinadi, ularga koment (sharh)lar yoziladi, tahlil qilinadi bu esa uning interaktivligini oshiradi; c) blogosfera ommaviy axborot vositalariga nisbatan tezkorroq ishlaydi, chunki blogerlar hodisalarni real vaqtida yoritish orqali axborot tarqalish tezligini ta’minlaydi. Bloglar odatda muallifning shaxsiy fikri, tajribasi va dunyoqarashini aks ettiradi. “Blogosfera – bu shunchaki axborot tarqatish maydoni emas, balki falsafiy va ijtimoiy jihatdan muhim fenomen bo‘lib, u inson tafakkuri, jamiyat va texnologiyaning o‘zaro ta’sirini aks ettiradi”[3]. Blogosfera axborot maydonidan tashqarida, chuqur falsafiy va ijtimoiy jihatlari bilan ajralib turuvchi fenomen bo‘lib, u inson tafakkuri, jamiyat va texnologiya o‘rtasidagi murakkab o‘zaro ta’sirni namoyon qiladi. Uning kelajakdagi rivojlanishi nafaqat texnologik yangiliklarga, balki jamiyatning axborotga bo‘lgan munosabatiga ham bog‘liq bo‘lib qolaveradi. U orqali shaxslar va guruqlar dunyoqarashi shakllantirilib, global axborot makonining bir qismiga aylanadi.

Blogosferaning madaniy ahamiyatida quyidagi uch asosiy jihat aks etadi. A) blogerlar san’at, adabiyot va milliy merosga oid mavzularni yoritish orqali, madaniy qadriyatlarni ham keng targ‘ib qilmoqda. Ayniqsa, badiiy va ilmiy bloglar yangi iste’dodlarni kashf etish hamda milliy va jahon madaniyatini ommalashtirishda muhim rol o‘ynaydi bu esa, madaniyat va san’atning targ‘ibotiga xizmat qiladi; B) blog yozish jarayonida tildan foydalanish madaniyatiga ta’sir ko‘rsatib, yangi yozuv uslublar va ifoda shakllarining paydo bo‘lishiga yordam bermoqda. Blogerlar turli janrlar va uslublarni qo‘llab, ijodiy yozuvlar, til va adabiyotni rivojlanishiga hissa qo‘shadi. C) blogosfera orqali turli qiziqishlarga ega insonlar bir-birlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo‘lib, madaniy almashinuv jarayonlari yanada rivojlanmoqda. Xalqaro blog platformalarining ommalashishi madaniyatlararo muloqotni yanada mustahkamlab virtual hamjamiyatlarning shakllanishiga zamin yaratdi.

Ilmiy-nazariy jihatdan blogosfera kommunikatsiya nazariyalari, mediaviy tafakkur, virtual haqiqat va postmodernizm doirasida o‘rganilmoqda. “Zamonaviy axborot jamiyatida bloglar individual fikrlash, subyektiv journalistika va ommaviy diskurs shakllanishida asosiy omillardan biri sifatida maydonga chiqmoqda”[4]. Bloglar shaxsiy fikr bildirish va mustaqil tahlil qilish imkoniyatini kengaytiradi. An’anaviy OAV ko‘pincha muayyan tahririyat siyosati yoki korporativ

manfaatlarga bog‘liq bo‘lsa, bloglar mustaqillikni ta’minlaydi. Blog mualliflari real voqelikni o‘z tafakkuri va dunyoqarashiqa asoslangan holda sharhlaydi, bu esa jamiyatda fikrlar xilma-xilligini oshiradi. Blogosferaning rivojlanishi raqamli texnologiyalar taraqqiyoti bilan chambarchas bog‘liq bo‘lib, algoritmlar, sun’iy intellekt va ijtimoiy tarmoqlarning ta’siri ushbu fenomenning dinamikasini belgilab beradi.

Shunday qilib, blogosfera nafaqat internet-madaniyatning tarkibiy qismi, balki ijtimoiy-madaniy hayotga sezilarli ta’sir ko‘rsatadigan global fenomen sifatida namoyon bo‘lmoqda. Uning ilmiy-nazariy o‘rganilishi kommunikatsiya jarayonlarining chuqur tahlilini talab qiladi va kelajakda jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridan biri bo‘lib qolishi kutilmoqda.

Blogosfera – bu internetda bloglar va ularning mualliflari tomonidan yaratilgan virtual axborot makoni, u zamonaviy axborot jamiyatining muhim tarkibiy qismiga aylangan. Ushbu fenomen kommunikatsiya, sotsiologiya, axborot texnologiyalari va falsafa sohalari doirasida ilmiy-nazariy jihatdan chuqur o‘rganilmoqda. Blogosferaning shakllanishi, rivojlanishi va uning jamiyatga ta’siri bir qancha nazariy yondashuvlar asosida tahlil qilinadi.

Blogosfera virtual kommunikatsiyaning eng muhim shakllaridan biri bo‘lib, uning rivojlanishi internet texnologiyalari bilan chambarchas bog‘liq. Traditsion ommaviy axborot vositalari bir yoqlama kommunikatsiyani amalga oshirsa (**OAV → auditoriya**), bloglar interaktiv aloqa imkoniyatini yaratib, ikki tomonlama (**bloger ↔ o‘quvchi**) muloqotni rivojlantirdi. Shuning uchun blogosfera kommunikatsiya nazariyalarining quyidagi konsepsiyalarini o‘zida aks ettiradi.

Shannon va Viver modeli – K.Shennon 1948 yilda nashr etgan “Muloqotning matematik nazariyasi” asari asosida axborot nazariyasiga asos solganligini qayd etadi. Olim, “shuningdek, 1937 yilda yaratilgan raqamli elektron dizayn nazariyasini yaratuvchisi sifatida ham mashhur bo‘lib, o‘sanda 21 yoshli Massachusetts texnologiya institutining aspiranti sifatida Shennon o‘z dissertatsiyasini yozgan bo‘lsa, unda Boole algebrasining elektr ilovalari har qanday mantiqiy, raqamli munosabatlarni qurishi mumkinligini ko‘rsatadi”[5]. Shennon o‘zining dissertatsiyasida raqamli elektron sxemalarni Boole algebrasiga asoslangan holda qurish mumkinligini isbotladi. Ushbu tamoyil keyinchalik kompyuterlarning rivojlanishiga olib keldi va bugungi raqamli dunyoning poydevorini yaratdi. Natijada, axborotni raqamli shaklda ifodalash imkonи yaratilib, bloglarning bugungi kunda butunlay raqamli platformalarda mavjud bo‘lib, Shennon asos solgan tamoyillar ularga ishlov berish va tarqatishda markaziy rol o‘ynadi. Mantiqiy operatsiyalar va algoritmik boshqaruv vujudga kelib, blog tizimlarining ishlashi (kontentni filrlash, tavsiyalar tizimi, qidiruv mexanizmlari) Shennon tamoyillariga asoslangan algoritmlar asosida ishlashi ta’mindandi. Bloglar orqali axborot uzatilishi va qabul qilinishi jarayonida uning samaradorligiga erishildi.

Habermasning jamoatchilik sferasi nazariyasi Frankfurt instituti vakili Yurgen Habermas tomonidan ishlab chiqilgan nazariy modeldir. “Uning asosiy asarlaridan biri – “Ijtimoiy sohaning tarkibiy o‘zgarishi” (1991) da ushbu kontseptsiya o‘zaro ta’sir jarayonida o‘rnatilgan va qabul qilingan qoidalar doirasida amalga oshiriladigan sub’ektlarning erkinligi va tengligi tamoyillari asosida tashkil etilgan mazmunli muhokama maydoni sifatida ochib berilgan. Tashqi ta’sirlardan mustaqillik va erkin axborot almashinuvi “jamoat sohasi”ning muhim belgilari sifatida “jamoatchilik fikri” institutining shakllanishini ta’minkaydi. Jamoatchilik fikri, sub’ektlar tomonidan ifodalangan pozitsiyalarning miqdoriy qc’shilishi emas, balki ijtimoiy o‘zaro ta’sirning mahsulidir”[6]. Habermasning jamoatchilik sohasi haqidagi nazariyasi blogosferaga bevosita taalluqli bo‘lib, erkin axborot almashinuvi imkonini yaratdi. Bloglar va ijtimoiy media platformalari an’anaviy OAVdan farqli ravishda, har bir shaxsga o‘z fikrini erkin ifodalash va global miqyosda muhokamalar olib borish imkoniyatini yaratdi. Bloglar senzura va tijoriy manfaatlardan qisman xoli bo‘lib, muqobil axborot manbasi sifatida jamiyatda o‘z o‘rniga ega bo‘ldi. Habermas fikricha, jamoatchilik fikri shunchaki sub’ektlarning individual qarashlari yig‘indisi emas, balki ular o‘rtasidagi interaktiv muhokamalar mahsulidir. Bloglar va ijtimoiy platformalar aynan shu jarayonni aks ettiruvchi zamonaviy vositaga aylandi. Ayna shu joyda masalaning ikkinchi tomoni ham mavjud. Bloglar har doim ham ishonchli manba emas, chunki ularda yolg‘on ma’lumotlar tarqalish ehtimoli yuqori shu holat, axborotning buzilishi va manipulyatsiyasini keltririb chiqaradi. Garchi blogosfera mustaqil platforma sifatida qaralsa-da, u yirik korporatsiyalar va davlatlarning ta’siridan butunlay holi emas, bu esa, tijoriy va siyosiy manfaatlarning ta’sirini inkor etaolmaslikka ham olib keladi. Bloglarda fikr almashinuvi bo‘lishiga qaramay, auditoriya ko‘pincha o‘ziga mos qarashlarga ega bo‘lgan muhitda qolib ketishi, segmentatsiya va rezonansga ham olib keladi. Shunga qaramay Habermas ilgari surgan g‘oya, bloglarning jamoatchilik fikrini shakllantirishdagi o‘rni va ijtimoiy muammolar bo‘yicha ochiq muhokamalar maydoniga aylanishga sabab bo‘ldi.

Blogosfera ijtimoiy hodisa sifatida fuqarolik jamiyatining rivojlanishi, ijtimoiy tarmoqlarning shakllanishi va jamoaviy fikr almashinuvi jarayonlariga ta’sir ko‘rsatadi. Blogerlik fenomeni quyidagi sotsiologik nazariyalar bilan bevosita bog‘langan. **Interaktivizm** – bloglarning virtual jamoalar hosil qilish va insonlar o‘rtasidagi o‘zaro ta’sirni ta’minalashda muhim ahamiyatga ega. Interaktivizm – bu ikki yoki undan ortiq sub’ektlarning bir-biri bilan dinamik va o‘zaro ta’sir qilish qobiliyatini tavsiflovchi tushuncha. “Texnologik kontekstda interaktivlik raqamlı tizimlar, interfeyslar yoki ommaviy axborot vositalarining foydalanuvchilar yoki boshqa qurilmalar bilan ta’sirchanligi va ulanishini anglatadi. Interaktiv tizimlar foydalanuvchilarga kirish va qayta aloqa mexanizmlari orqali raqamlı platformaning mazmuni yoki funksionalligiga faol ishtirot etish, manipulyatsiya qilish yoki ta’sir o’tkazish imkonini beradi. Interaktivlik o‘yin, ta’lim, o‘yin-kulgi

va aloqa kabi turli sohalarda hal qiluvchi rol o‘ynaydi, foydalanuvchi tajribasini oshiradi va real vaqtda o‘zaro ta’sir o‘tkazadi. Interfaol interfeyslar va ilovalar dizayni mazmunli aloqalarni osonlashtiradigan intuitiv, qiziqarli va foydalanuvchilarga qulay tajribalarni yaratishga qaratilgan”[7]. Tadqiqotchi sifatida ushbu fikrga qo‘shilgan holda, interaktivlikning zamonaviy raqamli ekotizimda muhim omil ekanligini ta’kidlash mumkin. Raqamli texnologiyalar rivojlanishi bilan interaktiv tizimlar foydalanuvchilarning faolligini oshirib, ularning tajribalarini shaxsiylashtirish va o‘zaro ta’sirni yanada samarali qilishga xizmat qiladi. Ayniqsa, ta’lim, o‘yin sanoati va kommunikatsiya sohalarida interfaollikning kuchayishi foydalanuvchilar bilan yanada chuqr aloqa o‘rnatish va ularga moslashtirilgan mazmun yaratish imkoniyatini beradi. Shu bilan birga, interaktiv texnologiyalar dizaynida intuitivlik va qulaylikni ta’minalash foydalanuvchilarning qoniqish darajasini oshirishda muhim ahamiyatga ega. Biroq, interaktivlikni ortiqcha yuklash yoki noto‘g‘ri yo‘naltirish foydalanuvchi tajribasini murakkablashtiradi, shuning uchun uni muvozanatli va samarali tatbiq etish muhim hisoblanadi.

Tarmoqlashgan jamiyat nazariyasi Ispan-amerikalik sotsiolog Manuel Kastels o‘zining birinchi marta 1996 yilda nashr etilgan “Axborot jamiyat: tarix, iqtisod, madaniyat” trilogiyasi bilan mashhur. Ushbu kitob axborot texnologiyalari sohasidagi inqilobning tub mohiyatini oshib beradi. “Texnologiyalar ishlab chiqarish sohasida paydo bo‘lgan bo‘lsa-da, ular turli xil ijtimoiy munosabatlar va ijtimoiy tuzilmalar bo‘ylab tarqalib, kuch va inson tajribasini o‘z ichiga oladi va o‘zgartiradi. Bundan kelib chiqadiki, biz ijtimoiy o‘zaro ta’sirning, ijtimoiy nazorat va ijtimoiy o‘zgarishlarning tarixan yangi shakllarining paydo bo‘lishini kutishimiz kerak”[8]. Bizningcha, texnologiyalar dastlab ishlab chiqarish jarayonlarini optimallashtirish maqsadida yaratilgan bo‘lsa-da, ularning ta’siri faqat iqtisodiy soha bilan cheklanib qolmadı. Ular jamiyatning barcha jabhalariga chuqr kirib borib, ijtimoiy munosabatlarni, hokimiyat tuzilmalarini va inson tajribasini tubdan o‘zgartirdi. Texnologiyalar jamiyatni nafaqat osonlashtiruvchi vosita sifatida, balki yangi ijtimoiy dinamikalarni shakllantiruvchi kuch sifatida ham namoyon bo‘lmoqda. Ular inson tajribasini, ijtimoiy nazorat mexanizmlarini va ijtimoiy o‘zgarishlarning yo‘nalishini belgilab berdi. Kastelning nazariyasi, blogosferaning raqamli texnologiyalar va internet madaniyati orqali global jamiyat shakllanishiga turki bo‘lib xizmat qildi.

Xulosa va takliflar. Xulosa qilib aytganda, blogosferaning ijtimoiy-madaniy ta’siri birinchidan, jamiyatda fikr almashish, madaniy muloqot va axborot tarqatishning muhim vositasiga aylangan. U fuqarolik jamiyatining rivojlanishiga, demokratik qadriyatlarning mustahkamlanishiga va axborot erkinligining ta’milanishiga xizmat qiladi.

Ikkinchidan, bloglar va ijtimoiy platformalar insonlarga o‘z fikrlarini erkin ifodalash, jamoatchilik bilan fikr almashish va o‘zligini namoyon etish imkonini beradi. Ular turli guruhlarning manfaatlarini aks ettiruvchi muhim media maydoniga aylandi.

Uchinchidan, blogosferaning rivojlanishi kommunikatsiya nazariyalari, ommaviy axborot vositalari tadqiqotlari va raqamli media sohasidagi ilmiy yondashuvlar bilan izohlanadi. Axborot oqimlarini boshqarish, virtual hamjamiyatlarni o‘rganish va zamonaviy jurnalistika tamoyillari bu sohaning asosiy nazariy yo‘nalishlariga aylandi.

To‘rtinchidan, elektron platformalar va bloglar ilmiy-ma’rifiy bilimlarni keng targ‘ib qilish, ta’lim jarayonlarini innovatsion shakllarda olib borish va fan-texnika yutuqlarini keng ommaga yetkazishda muhim ahamiyatga ega bo‘ldi.

Beshinchidan, blogosfera axborot uzatishning yangi bosqichini yaratgan bo‘lsa-da, undagi ishonchlilik, yolg‘on ma’lumotlarning tarqalishi va axloqiy me’yorlarga rioya qilish kabi muammolar dolzarb hisoblanadi. Shu sababli, blog yuritishda axborot madaniyati va jurnalistik etika tamoyillariga rioya qilish muhim hisoblanadi.

Blogosferaning ijtimoiy-madaniy ahamiyati va ilmiy-nazariy asoslarini ijtimoiy muhitda qo‘llash uchun quyidagi tavsiyalarni ilgari suramiz:

- Bloglar va raqamli kommunikatsiya vositalarining rivojlanish tendensiyalarini tahlil qilish uchun ommaviy axborot vositalari nazariyalari, ijtimoiy tarmoqlarning ta’sir kuchi va zamonaviy media konsepsiylarini o‘rganish lozim.
- Blogosferaning jamiyatga ta’sirini baholash uchun turli auditoriyalar, madaniy qatlamlar va manfaatdor guruhlarning bloglardan foydalanish xususiyatlarini tadqiq qilish zarur. Shu bilan birga, ularning axloqiy, huquqiy va ma’naviy jihatlariga alohida e’tibor qaratish talab etiladi.
- Blogosferaning ijtimoiy ahamiyatini chuqr tadqiq etish uchun so‘rovnomalar, intervyular, kontent-tahlil va big data metodlaridan foydalanish tavsiya etiladi. Bu yondashuvlar real ma’lumotlarga asoslangan ilmiy xulosalar chiqarishga yordam beradi.
- Blog platformalaridan fan-texnika yutuqlari, innovatsion g‘oyalar va ta’limiy materiallarni ommaga yetkazishda samarali foydalanish lozim. Bu jarayonda ta’lim bloglari, ilmiy bloglar va raqamli akademik platformalarning imkoniyatlaridan foydalanish muhim ahamiyatga ega.
- Blogosferada soxta axborotlarning tarqalishining oldini olish, ishonchli manbalarni aniqlash va tasdiqlangan manbalarni targ‘ib qilishga to‘sinqlik qilish ucgun, media savodxonlikni oshirish bo‘yicha chora-tadbirlarni ishlab chiqish va jamiyatga joriy etish.
- Sun’iy intellekt, data mining va blokcheyn kabi zamonaviy texnologiyalardan foydalanish blogosferadagi axborot oqimlarini chuqr tahlil qilish va uning ijtimoiy-madaniy ta’sirini ilmiy asosda o‘rganishda katta imkoniyatlar yaratadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Горшкова Е.И. Блог как вид интернет-коммуникации: автореф. дис. ... канд. филол. наук. – СПб., 2013.

2. Баженова Е.А., Иванова И.А. Блог как Интернет-жанр // Вестник Пермского университета: российская и зарубежная филология. 2012. № 4(20). – С.126.
3. Осипова М. Р. Блогосфера как новое поле коммуникации молодежи / М. Р. Осипова // Четвертая промышленная революция: реалии и современные вызовы. Санкт-Петербургские социологические чтения: сбор. – 2018. – С. 709-712.
4. Андреев А.П., Кокунова С.Д. Цифровое общество как культурно-исторический контекст развития человека. / Сборник трудов конференции. – М.: “Государственный социально-гуманитарный университет”, 2018. – С.25.
5. Корженко А.А., Петрушечкина В.В. Анализ распространения коммуникации в социальных сетях: модель Шеннона-Уивера и модель де флера // Ценности и интересы современного общества Международная научно-практическая конференция. 2014. – С .86.
6. Habermas J. The Structural Transformation of the Public Sphere. Cambridge Massachusetts: The MIT Press, 1991. – P. 28-29.
7. Kolbl C. Consciousness via practice and participation: Interactivism vis-a-vis other theoretical accounts // Culture & psychology. - L., 2007. - Vol. 13, N 3. - P. 297-306.
8. Кастельс М. Информационная эпоха: экономика, общество и культура: Пер. с англ. под науч. ред. О.И. Шкаратана – М.: “ГУ ВШЭ”, 2000. – С.212.